

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No2
MAXSUS SON

2026

MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINING
MAQOLALARI
TO‘PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 57 sahifa,
mart, 2026-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	8
Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING TARMOQ TAHLILI.....	12
Go'zal Samadova Solik qizi, Husan Normurodov	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	17
Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich, Aytmuratova Ulbike	
O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY SEKTORINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	21
Abduxalilov S.A., Normurodov X.E.	
ФОРМИРОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	27
Абдумажидов Шохжахон Шухратович, Захидов Шухрат Шокирович, Насиров Дилшод Фархадович	
СТЕЙБЛКОИНЫ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО ПОСРЕДНИЧЕСТВА	31
Бахтиярова А.Б., Алиева С.С.	
TASHKILOT AXBOROT TIZIMLARINI KVANT TAHDIDLARIDAN HIMOYALASHDA POST-KVANT KRIPTOGRAFIK ALGORITMLARNI QO'LLASH.....	38
G'ofurova Muxlisa G'ulom qizi, Tursunova Sadoqat Abdusalom qizi	
CHORVACHILIKDA QIYMAT ZANJIRI: BARQARORLIK VA DAROMAD	44
Saidov Muhammadali Hakimovich, Mahmatov Hoshim, Esanbekov Diyorbek	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA BERILAYOTGAN SOLIQ IMTIYOZLARINING SAMARADORLIGI	50
Sarsengalieva Albina Askar Qizi, Sarsenbaev Baxitjan Abdulgazievich	



O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING TARMOQ TAHLILI

Go'zal Samadova Solik qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti talabasi

Ilmiy rahbar:

Husan Normurodov

O'zMU katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston qishloq xo'jaligining tarmoq tarkibi hamda uning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida qishloq xo'jaligining asosiy yo'nalishlari bo'lgan dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarining iqtisodiy ahamiyati, ishlab chiqarish hajmlaridagi o'zgarishlar hamda ularning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni o'rganilgan. Shuningdek, tarmoq rivojiga ta'sir etuvchi omillar, jumladan yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan agrar islohotlar hamda bozor mexanizmlarining ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligi tarmoqlarini yanada rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, tarmoq tarkibi, dehqonchilik, chorvachilik, ishlab chiqarish hajmi, iqtisodiy tahlil, yer va suv resurslari, agrar islohotlar, bozor mexanizmlari.

Abstract: This article analyzes the sectoral structure of agriculture in Uzbekistan and the trends of its development. The study examines the economic importance of the main agricultural sectors, namely crop production and livestock farming, changes in production volumes, and their role in the national economy. In addition, the factors influencing the development of the sector are analyzed, including the efficiency of land and water resource utilization, state agricultural reforms, and the impact of market mechanisms. The results of the study contribute to the development of practical recommendations aimed at further improving agricultural sectors, enhancing their competitiveness, and ensuring economic sustainability.

Keywords: agriculture, sectoral structure, crop production, livestock farming, production volume, economic analysis, land and water resources, agrarian reforms, market mechanisms.

Аннотация: В данной статье проанализированы отраслевая структура сельского хозяйства Узбекистана и тенденции его развития. В ходе исследования изучены экономическое значение основных направлений сельского хозяйства – растениеводства и животноводства, изменения объемов производства, а также их роль в экономике страны. Кроме того, рассмотрены факторы, влияющие на развитие отрасли, в том числе эффективность использования земельных и водных ресурсов, проводимые государством аграрные реформы и влияние рыночных механизмов. Результаты исследования направлены на разработку практических рекомендаций по дальнейшему развитию отраслей сельского хозяйства, повышению их конкурентоспособности и обеспечению экономической устойчивости.

Ключевые слова: сельское хозяйство, отраслевая структура, растениеводство, животноводство, объем производства, экономический анализ, земельные и водные ресурсы, аграрные реформы, рыночные механизмы.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, sanoat uchun xomashyo yetkazib berish hamda aholi bandligini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda ushbu tarmoqning iqtisodiyotdagi ulushi va ijtimoiy ahamiyati yuqori darajada saqlanib kelmoqda.



Qishloq xo'jaligining asosiy yo'nalishlari hisoblangan dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarining samarali hamda barqaror rivojlanishi ishlab chiqarish hajmlarini oshirish va tarmoqning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bois qishloq xo'jaligining tarmoq tarkibini tahlil qilish va uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi O'zbekiston qishloq xo'jaligining tarmoq tarkibini tahlil qilish, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarining rivojlanish holatini baholash hamda ularning rivojiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida qishloq xo'jaligi tarmoqlari, predmeti sifatida esa ularning tarkibi va rivojlanish jarayonlari belgilandi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash, shuningdek, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston qishloq xo'jaligining tarmoq tarkibi va rivojlanish tendensiyalari masalalari mahalliy hamda xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan turli jihatlarida tadqiq etilgan. Jumladan, A. Abdug'aniyev va U. Umarovlarning tadqiqotlarida qishloq xo'jaligining milliy iqtisodiyotdagi o'rni, shuningdek, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarining iqtisodiy ahamiyati statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Mualliflar tarmoq samaradorligini oshirishda tarkibiy o'zgarishlarning muhimligini ta'kidlaydilar [1].

Sh. Sharipov tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hududiy va tarmoq xususiyatlari tahlil qilingan bo'lib, unda yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari resurslardan oqilona foydalanish tarmoq barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi [2].

D. Qodirov va hamkorlarining maqolalarida qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan davlat islohotlarining tarmoqlar rivojiga ta'siri o'rganilgan. Mualliflar bozor mexanizmlarini joriy etish hamda fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash ishlab chiqarish hajmlarining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini qayd etadilar [3].

Xalqaro tashkilotlar, xususan, Jahon banki va FAO hisobotlarida O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanish tendensiyalari mintaqaviy kontekstda tahlil qilingan. Ushbu manbalarda tarmoqni modernizatsiya qilish, suvni tejavchi texnologiyalarni joriy etish hamda raqobatbardoshlikni oshirish muhim yo'nalishlar sifatida ko'rsatib o'tilgan [4].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmlarining yillar bo'yicha o'zgarishini tahlil qilishda asosiy empirik manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu statistik axborotlar tarmoq rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi [5].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligining tarmoq tarkibi, ishlab chiqarish dinamikasi hamda unga ta'sir etuvchi omillar masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Mazkur maqola ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mazkur tadqiqot O'zbekiston qishloq xo'jaligining tarmoq tarkibi hamda uning rivojlanish tendensiyalarini kompleks o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy nazariya, agrar iqtisodiyot hamda statistik tahlil usullarining uyg'unligiga asoslanadi.

Tadqiqot jarayonida qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanish holatini baholash, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarining iqtisodiy ahamiyatini aniqlash hamda ularning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosini agrar iqtisodiyot nazariyalari, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish konsepsiyasi hamda resurslardan samarali foydalanish tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqot davomida bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Jumladan, iqtisodiy-statistik tahlil usuli orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarmoq tarkibi hamda ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Taqqoslash usuli yordamida turli yillar kesimidagi ko'rsatkichlar o'zaro solishtirilib, rivojlanish dinamikasi aniqlashtirildi. Tahlil va sintez usullari orqali qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar umumlashtirildi hamda ularning o'zaro bog'liqligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining asosiy va strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, qishloq joylarda bandlikni oshirish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy tadqiqotlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishi mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etiladi [1].



1-rasm. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi tarmog'ining YaIMdagi ulushi (2018-2025)¹

So'nggi yillarda agrar sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida qishloq xo'jaligi bozor munosabatlariga tobora moslashib bormoqda. Xususan, fermer va dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy mustaqilligi kuchayib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan mexanizmlar joriy etilmoqda [3]. Yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda zamonaviy agrotexnologiyalarni tatbiq etish orqali mahsuldorlikni oshirish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [2].

Diagramma ma'lumotlari 2018–2025-yillar davomida qishloq xo'jaligining YaIMdagi ulushi bosqichma-bosqich kamayish tendensiyasini ko'rsatadi. Jumladan, 2018-yilda 29,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019–2021-yillarda 26–27 foiz atrofida nisbatan barqaror saqlangan. 2022–2023-yillarda bu ko'rsatkich 25 foizdan 24 foizgacha kamaygan, 2024-yilda 18,3 foizni, 2025-yilda esa 17,3 foizni tashkil etgan. Natijada sakkiz yil davomida qishloq xo'jaligining YaIMdagi ulushi taxminan 12 foiz punktga kamaygan.

Mazkur jarayon salbiy holat sifatida baholanmaydi, aksincha, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida kuzatiladigan tabiiy strukturaviy o'zgarishlarning ifodasi hisoblanadi. Bu mamlakat iqtisodiyotining asta-sekin agrar yo'nalishdan sanoat va xizmatlar sektoriga asoslangan modelga o'tayotganini bildiradi. Iqtisodiy rivojlanish jarayonida mehnat resurslari hamda investitsiyalar yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlarga yo'naltiriladi, natijada agrar sektorning YaIMdagi nisbiy ulushi tabiiy ravishda kamayadi. Bu esa iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi va tarkibiy modernizatsiyasining muhim belgisi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 538,9 trillion so'mni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 27 foiziga tengdir [5]. Mazkur holat qishloq xo'jaligining iqtisodiyotdagi ulushi sezilarli ekanini va uning iqtisodiy o'sishga muhim hissa qo'shayotganini ko'rsatadi. Jahon banki hamda FAO hisobotlarida ham O'zbekiston agrar sektori milliy iqtisodiyotning muhim tayanchi sifatida baholanadi [4], [6].

O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmoqlarining umumiy tarkibi asosan ikki yirik yo'nalishdan iborat bo'lib, ular dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlaridir. Ushbu tarmoqlar o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritib, qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining asosiy qismini shakllantiradi [1].

Dehqonchilik tarmog'i ekin yetishtirishga ixtisoslashgan bo'lib, unda g'alla, sabzavot, meva, poliz hamda texnik ekinlar yetishtiriladi. Chorvachilik esa go'sht, sut, tuxum va boshqa hayvonot mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ushbu tarmoqlar tarkibida sifat jihatidan muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda, ya'ni yuqori daromad keltiruvchi va eksportbop mahsulotlar ulushi ortib bormoqda [3]. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishida dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari yetakchi o'rinni egallagan. Bu agrar sektor tarmoq tarkibining nisbatan muvozanatli ekanini va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilayotganini ko'rsatadi [5].

Dehqonchilik tarmog'i O'zbekiston qishloq xo'jaligining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ushbu tarmoq orqali aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiriladi hamda qayta ishlash sanoati xomashyo bilan ta'minlanadi. Dehqonchilikning rivojlanish darajasi ko'p jihatdan yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligiga bog'liq bo'lib, bu borada ilmiy asoslangan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi [2]. 2025-yil yakunlariga ko'ra, dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 243,0 trillion so'mni tashkil etib, mamlakat YaIMida 13,1 foiz ulushni egallagan [5]. Bu ko'rsatkich dehqonchilik tarmog'ining iqtisodiy

1 State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics — sektor bo'yicha YaIM tuzilishi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi [7], [8], [9], [10].



salohiyati yuqori ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tarmoq mavsumiy xususiyatga ega bo'lgani sababli ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Chorvachilik tarmog'i esa aholini oqsilga boy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda muhim strategik ahamiyatga ega. Ushbu tarmoqning asosiy ustunligi yil davomida uzluksiz mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatining mavjudligidir. 2025-yilda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 265,7 trillion so'mni tashkil etib, YAIMda 14,3 foiz ulushni egallagan [5]. Chorvachilikning rivojlanishi dehqonchilik bilan uzviy bog'liq bo'lib, yem-xashak bazasining mustahkamligi hamda naslchilik ishlarining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. So'nggi yillarda chorvachilik tarmog'ida fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash va intensiv texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [3], [6].

O'zbekiston qishloq xo'jaligi asosan sug'oriladigan yerlar hisobiga rivojlanib kelmoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil holatiga mamlakatda qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning qariyb 4,3 million gektari sug'oriladigan yerlar hissasiga to'g'ri keladi, bu jami ekin maydonlarining 85 foizidan ortig'ini tashkil etadi [5]. Sug'oriladigan yerlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 90 foizdan ortig'ini beradi, bu esa yer resurslarining strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

So'nggi yillarda yer resurslaridan foydalanish samaradorligi ekinlar hosildorligi orqali baholanmoqda. Jumladan, 2023–2024-yillarda g'alla hosildorligi o'rtacha 58–60 sentner/ga, paxtada esa 32–34 sentner/ga atrofida shakllangan [5]. Biroq ushbu ko'rsatkichlar tabiiy-iqlim sharoiti hamda suv ta'minotiga bevosita bog'liq bo'lib, ayrim hududlarda yerlarning sho'rlanishi va degradatsiyasi hosildorlikni pasaytiruvchi omil sifatida saqlanib qolmoqda. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, sug'oriladigan yerlarning qariyb 45 foizi turli darajada sho'rlangan bo'lib, bu holat yer unumdorligining pasayishiga va ishlab chiqarish xarajatlarining ortishiga olib kelmoqda [2]. Shu sababli yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda meliorativ holatni yaxshilash muhim vazifa hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida suv resurslari ta'minoti O'zbekiston uchun muhim strategik omillardan biridir. FAO ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda foydalanilayotgan suv resurslarining qariyb 90 foizi qishloq xo'jaligi ehtiyojlariga sarflanadi [4]. Shu bilan birga, suvning asosiy qismi transchegaraviy daryolar hisobiga shakllanib, iqlim o'zgarishi va suv oqimining kamayishi xavfini kuchaytirmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021–2024-yillarda sug'orish uchun sarflangan suv hajmi yiliga o'rtacha 50–52 milliard kub metrni tashkil etgan, biroq suvdan foydalanish samaradorligi hali ham oshirishni talab etadi [5]. Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, ochiq kanallar orqali suv uzatishda yo'qotishlar 30–35 foizgacha yetadi [6].

Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy etish natijasida suv sarfi 35–40 foizga qisqarib, hosildorlik esa 20–25 foizga oshgani kuzatilmoqda [6]. 2024-yilda respublika bo'yicha 600 ming gektardan ortiq maydonda suvni tejavchi sug'orish usullari qo'llanilgan [5].

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish qishloq xo'jaligi rivojining muhim omillaridan biridir. Melioratsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, suvni tejavchi texnologiyalarni keng joriy etish hamda yer unumdorligini tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ining samaradorligini oshirish mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi hamda eksport salohiyatini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi bosqichda tarmoq samaradorligini oshirish ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bilan uzviy bog'liq.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligini rivojlantirish istiqbollari tarmoq samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, resurs tejamlilikni ta'minlash hamda eksport salohiyatini kuchaytirish bilan chambarchas bog'liq. Ushbu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan tizimli chora-tadbirlar qishloq xo'jaligining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston qishloq xo'jaligining tarmoq tarkibi, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarining rivojlanish holati hamda ularga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillar kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qishloq xo'jaligi mamlakat yalpi ichki mahsulotining muhim qismini shakllantirib, oziq-ovqat xavfsizligi hamda aholi bandligini ta'minlashda strategik rol o'ynamoqda.

Tahlillar asosida dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari o'rtasida nisbatan muvozanatli tarkib shakllangani, biroq ularning rivojlanish samaradorligi ko'p jihatdan yer va suv resurslaridan foydalanish darajasiga bog'liqligi aniqlandi. Sug'oriladigan yerlarning yuqori ulushi va suv resurslariga kuchli bog'liqlik sharoitida yerlarning sho'rlanishi, suv yo'qotishlari hamda resurslardan foydalanish samaradorligining yetarli darajada emasligi tarmoq rivojiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida qayd etildi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar



va suvni tejovchi sug'orish usullarini joriy etish hosildorlikni oshirish, resurs sarfini kamaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash imkonini berayotgani aniqlandi. Eksport yo'nalishida esa meva-sabzavot mahsulotlari yetakchi o'rinni egallab, yuqori qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish zarurligi qayd etildi.

Tadqiqot natijalari ilmiy jihatdan O'zbekiston qishloq xo'jaligining tarmoq tarkibi va rivojlanish tendensiyalarini tizimli baholash imkonini beradi. Maqolada keltirilgan xulosalar agrar iqtisodiyot, resurslar iqtisodiyoti hamda hududiy rivojlanish masalalarini o'rganishda nazariy asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Amaliy jihatdan esa tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari, strategik rejalashtirish hujjatlari hamda fermer va klaster xo'jaliklarining ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishda foydalanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha aniqlangan muammolar va imkoniyatlar tarmoqda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida amaliy qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

— yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida melioratsiya tizimlarini modernizatsiya qilish hamda sug'orish infratuzilmasini bosqichma-bosqich yangilash;

— suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishni iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish va ularni kichik hamda o'rta fermer xo'jaliklari uchun yanada qulay qilish;

— dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish orqali yem-xashak bazasini mustahkamlash hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;

— innovatsion va raqamli agrotexnologiyalarni keng joriy etish maqsadida ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta'lim tizimi va ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish;

— qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida xomashyo ulushini qisqartirib, chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;

— eksport infratuzilmasini, logistika va sertifikatlash tizimlarini xalqaro talablar darajasida rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi tarmog'ining barqaror rivojlanishi yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish hamda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks va tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Ushbu yo'nalishlarda olib boriladigan izchil islohotlar mamlakat agrar sektorining raqobatbardoshligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdug'aniyev A., Umarov U. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 320 b.
2. Sharipov Sh. Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi. – Toshkent: Fan, 2019. – 256 b.
3. Qodirov D., Ismoilov A., Rasulov B. Qishloq xo'jaligida bozor islohotlari va ularning iqtisodiy samarasi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №3. – B. 45–52.
4. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Agricultural Development and Food Security in Uzbekistan. – Rome: FAO, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Qishloq xo'jaligi statistik to'plami. – Toshkent: Davlat statistika qo'mitasi, 2023–2025.
6. World Bank. Transforming Agriculture in Uzbekistan. – Washington, DC: World Bank, 2021.
7. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. Sectoral structure of GDP in Uzbekistan. – Tashkent, 2024.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (2018–2025 yillar). – Toshkent: Statistika agentligi, 2025.
9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining 2025-yil yakunlari bo'yicha axborot. – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2025.
10. World Bank. World Development Indicators: Agriculture, forestry and fishing, value added (% of GDP) – Uzbekistan. – Washington, DC: World Bank, 2025.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100